

## O'ZBEKLARNING MILLIY QADRIYATLARI VA MEHMONDORCHILIK UDUMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19673293>

**Buriyeva Dilsora Achilovna**

*Fan va texnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti.*

### **Annotatsiya.**

Tarixiy merosni tiklash va milliy qadriyatlarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining mazmuni, metodologik asoslari va ijtimoiy ahamiyati falsafiy hamda siyosiy-nazariy nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. Tarixiy meros va milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, ularning ijtimoiy ong, milliy identitet va ma'naviy barqarorlikni shakllantirishdagi funksiyalari, shuningdek, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat dasturlarining tarixiy xotirani mustahkamlash hamda milliy madaniy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ahamiyatli. Shu bois, maqolada tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli metodlar asosida davlat dasturlarining institutsional va mafkuraviy mexanizmlari yoritilib, ularning zamonaviy jamiyatdagi strategik ahamiyati ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarixiy meros, milliy qadriyatlar, do'stona munosabatlar, mehmondorchilik, tarixiy xotira, madaniy siyosat, globallashuv, ma'naviy barqarorlik.

Ko'p asrlik moziyga qaytar bo'ylashgan o'zbek xalqining tabiatida, fe'l-atvorida mehmondorchilik urf-odati va an'analari mavjud bo'lib, ular elimiz qon-qoniga singib ketgan. Xalqimizning mehmondorchiligi jahonda nihoyatda obro'e'tibor qozongan. Shu sababdan ham o'zbeklarning ma'naviyati, urf-odat va an'alariga, o'zbek xarakteriga, tabiatiga qiziqish va e'tibor kuchaymoqda. Bu O'zbekistonning jahon hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkam egallashiga yanada yordam bermoqda. Tarix sahifalariga nazar tashlasak, hattoki ibtidoiy jamoa davrida barcha qabila xalqlarda bir xil turli qabilalarga mansub guruhlariga mehmon bo'lib borish odatlari keng tarqalgan. Bunday mehmondorchiliklar masalan, avstraliyaliklarda ham saqlangan.

Arktikaning og'ir sharoitida eskimoslar aloqa qilishning qiyin bo'lishiga qaramay, o'z do'stlarini borib ko'rish uchun juda olis safarga chiqqanlar. Bu o'zaro bordi-keldi va mehmondorchilik madaniyat almashinuvi vositasi sifatida ibtidoiy davr ma'naviyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Mehmonga ko'pincha o'sha guruhda ovqatlar mo'l-ko'l bo'lsa, mevalar pishgan, baliq tutiladigan va hosil

yig'ishtirilgan vaqtda borilgan. Ibtidoiy davrda mehmonga borgan kishi siylanar ekan, uning o'zi ham o'z joyidagi mavjud mahsulotdan yoki o'zi ishlagan buyumlardan olib borgan. Masalan, avstraliyaliklar yerlarida chaqmoq tosh konlari mavjud bo'lgan qabilalarga chaqmoq tosh olish uchun kelgan boshqa qabila kishilari o'zlari bilan birga ozroq ovqat, o'zlari tayyorlagan buyumlardan sovg'a olib kelishgan. Ziyofat qilish yoki sovg'a olib kelish ixtiyoriy bo'lgan, biroq bu odat dastlabki vaqtlardan bir-birini hurmatlash va majburiylik tamoyiliga aylana borgan. Mehmondorchilik bo'lgandan keyin mezbonni, albatta, mehmonga chaqirish, sovg'a olgach, albatta, sovg'a qaytarish tartibi ham kelib chiqqan. "Olmoqning bermog'i bor", "Bor tovog'im, kel tovog'im, bormasang, kelmasang, o'rtada sin tovog'im" kabi naqlarda ham ana shu tamoyillar ifodalangan.

Sovg'a olish va qaytarish kundalik turmush hodisasi bo'lib, barcha urug'-qabila va xalqlarda keng tarqalgan. Bu haqda sayohatchilar ko'p yozishgan. Ch. Darvin "Bigl" kemasida Olovli Yerga qilgan sayohatida mahalliy aholiden hadya kelgan vaqtda, u darhol ikkita baliqni olib, nayzasining uchida Darvinga uzatganligini yozib qoldirgan.

Do'stona munosabatlar faqat guruhlar o'rtasida, jamoa o'rtasida o'rnatilib qolmay, balki turli qabilalarning ayrim kishilari o'rtasida ham o'rnatilgan. Bu do'stona aloqalar o'zaro bordi-keldilar madaniy tarixida eng muhim rol o'ynagan. Slavyanlarning aka-uka va opa-singil tutinishlari, kavkazliklarning qunoqlari, bir-birlarining qonlaridan ichib, tug'ishgan aka bo'lish va h.k.lar do'stona munosabatlarning eng keyingi shakllaridan hisoblanadi. Tug'ishganlarning burchi har birining boshiga mushkul ish tushganda bir-biriga yordam berishdan va bir-birini himoya qilishdan, mulkini ma'lum darajada umumlashtirishdan iborat bo'lgan.

Zamonaviy o'zbek mualliflari akademik K. Shoniyozov, X. Ismoilov, K. Mahmudov, Mahmud Sattor, R. Akbarov, F. Quvonova, O. Buriyev, F. Ochilovlar asarlarida ham xalqimizning an'anaviy mehmondorchilik udumlari bir muncha bayon etilgan. Marhum faylasuf olim K. Shoniyozovning "Mehmonnoma" (T., 1989), M. Sattorning "O'zbek udumlari" (T., 1993 y.), F. Quvonovaning "Mehmon kutish san'ati" (T., 2015), R. Akbarovning "Inson ziynati" (Qarshi, 2015) kitoblari mavjud. Ushbu mavzuga oid sermazmunlik, keng qamrovlilikdagi O. Burievning maqolasi nashr etilgan.

Lekin xalqimiz an'anaviy mehmondorchilik urf-odatlarini va an'analari hozircha etnologiya yo'nalishida maxsus tarzda va alohida ilmiy tadqiq qilinmagan.

Ko'p asrlik madaniyatga ega bo'lgan o'zbek xalqi, ya'ni mehmon kutish va kuzatish fazilatlarini bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi va bu ezgu udumi bilan ularning hurmatiga sazovor bo'lgan. Azaldan xalqimiz mehmonga alohida tavoze

va iliq munosabatda bo'lishga odatlangan. Shu boisdan qadimgi manbalarda mehmondorchilik insonning, oilaning, urug', qabila, xalqning insoniylik, saxovat, madaniy va ma'naviy aloqasi, muloqot mezoni juda katta qadriyat sifatida e'zozlangan.

Agar tarixiy manbalarga murojaat qilsak, ajdodlarimiz mehmondorchilik fazilatlari Mahmud Qoshg'ariy, Ibn Havlaq, Kaykovus, Ibn Battuta, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Rui Gonsales de Klavixo, Alisher Navoiy kabi mualliflar asarlarida ma'lumotlar uchraydi. O'zbek xalqi mehmondorchiligining yorqin namunasi 1404-yil kuzida Samarqandda - Amir Temur saroyida bo'lgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Kundalik"larida bayon etilgan. Elchi Klavixo "Kundalik"larida tasvirlangan mehmondorchilik udumi va an'analari alohida ilmiy tadqiqotni va chuqur tahlilni talab etadi, albatta.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da ta'kidlanganidek, mehmon (mehmon, tashrif buyuruvchi):

To'y, ziyofat va shu kabilar munosabati bilan yo'qlab kelgan shaxs.

Majlis, kengash va shu kabilarga chetdan chaqirilgan shaxs.

Chetdan tashrif buyurgan, vaqtinchalik kelgan shaxs.

Mehmondor - mehmonni qabul qiluvchi, mezbon;

Mehmondorchilik - mehmonni kutish, ziyofat;

Mehmondo'st - mehmonni do'st ko'ruvchi, mehmonsevar;

Mehmondo'stlik - mehmondo'stlik xislati;

Mehmonnavoz - mehmonni ardoqlovchi;

Mehmonxona - mehmon kutiladigan uy, musofirlar uchun bino.

Islom dinida har bir mo'min-musulmon mehmonni izzat-hurmat qilish lozimligi o'qtirilgan. Qur'oni Karimda mehmondorchilikka katta e'tibor qaratilgan bo'lib, "Mehmonni hurmat qilinglar!" deb buyurilgan. Muborak hadislarda "Kim Ollohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, mehmonni izzat-ikrom qilsin", deyilgan va Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tomonidan "Mehmon uchun bir kecha ziyofat har bir musulmon zimmasida vojibdir", deyilgan. Va yana bir hadisda ta'kidlanganki: "Uylariga mehmon qo'ymaydigan kishilar yomon kishilardir", "Mehmondo'st bo'lmagan odamdan yaxshilik kutilmaydi".

Mehmon uchun har xil takalluflar ta'qiqlanadi, "Ziyofatning muddati uch kundir, undan ortig'i sadaqa hisoblanadi, birovga qilingan har bir yaxshilik ham sadaqadir". "Biror qabilaning ulug' kishisi yoki boshlig'i kelsa, sizlar ham uning izzat-hurmatini qilinglar", "Ziyofatingizga kelgan odamning hurmatini joyiga qo'yinglar", "Ey odam farzandi, agar uyingga mehmon kelmay qolsa, Parvardigorga: La'nati shayton yomonligidan meni o'zing saqla", deya iltijo qil", "Mehmonni e'zozlamagan qavm yovuz qavmdir".

Islomda musofirni, mehmonlarni hurmat qilish, ularni kutib olish eng oliy savobli ibodatlardan sanaladi. Lekin xonadon sohibining mehmonlarni kutib olish uchun turli isroflar qilishiyu, haddan tashqari ko‘p tayyorgarliklar ko‘rishi majbur emas. Mehmon uchun ochiq yuz, issiq ovqat bo‘lsada, shunga qanoat qilish kerak.

Buyuk allomalar merosida ham mehmondorchilik haqida ko‘plab satrlar mavjud. Masalan, Kaykovus (XI asr) o‘zining mashhur “Qobusnoma” asarining “Mehmon olmoq va bo‘lmoq zikrida” nomli 12-bobi mehmondorchilikka bag‘ishlangan bo‘lib, unda mehmonga borish va uni kutib olish odoblari haqida teran mulohazalar bayon etilgan. Xalqimizda “Mehmon otangdan ulug‘”, “Mehmon atoi Xudo”, “Mehmonxonang tor bo‘lsa ham, ko‘ngling keng bo‘lsin”, “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan” kabi naqlar mavjud.

O‘zbeklarda qadimdan eshikdan kirib kelgan odamni hurmat-izzat bilan kutib olib, yana ehtirom bilan kuzatib qo‘yishadi. Donolar ham mehmondorchilik haqida “Chaqirilmagan yerga kelgan mehmon, supurilmagan yerga o‘tiradi”, “Mehmon sevgan kishisini rizqi mo‘l bo‘ladi”, “Mehmonli uy – barakali uy”, “Mehmonsiz uy suvi yo‘q tegirmonga o‘xshaydi”.

O‘zbek xalqining eng qadimgi va noyob xazinalaridan biri mehmondorchilik hisoblanadi. Qadimgi va o‘rta asrlarda Sharq olamida, xususan, Turon zaminida maxsus langarxonalar, musofirxonalar, karvonsaroylar, rabotlar mavjud bo‘lgan. Bu maskanlarda boshqa yurtlardan kelgan sayyohlar, savdo va tijorat ahli, elchiyu choparlar vaqtinchalik yashashgan. Ishbilarmon va tadbirkorlar ajdodlarimiz o‘z hovlilaridan tashqarida, chorraha yo‘llarida qunoqxonalar, rabotlar qurishgan. Yo‘lovchilar ana rabotlarda nafaslarini rostlab, hordiq chiqarib, yana o‘z yo‘llarida davom etishgan.

O‘tmishda ham, hozirgi davrda ham shahar-qishloqlardagi hovlilarda maxsus jihozlangan mehmonxonalar mavjud. O‘ziga to‘q xonadonlarda ichki va tashqi hovlilar bo‘lib, tashqarida maxsus mehmonxonalar joylashgan. Xalqimizda xonadonga mehmon kelishi ma‘lum ma‘noda sharaf hisoblashib, ko‘p mehmon kelib ketadigan oilalarda “Eshikli uy”, “Keldi-ketdi ko‘p”, “Dasturxon ochiq”, “Ko‘ngli ochiq”, “Mehmondo‘st”, “Mehmonnavoz” kabi iboralar ehtirom bilan ishlatiladi. Mehmondo‘st xonadonlar, ya‘ni mehmonlar uchun ochiq eshikli oilalar barakotli, ahil, mustahkam bo‘lib, mehmondo‘stlik yoshlar uchun bevosita tarbiyasi ham hisoblanadi.

Shu boisdan ham xalqimizda “Mehmon kirar eshikdan, rizki kelar teshikdan”, “Yo‘qcha guruch osh bo‘lur, mehmon kutgan shu bo‘lur”, “Mehmonga osh qo‘y, ikki qo‘lini bo‘sh qo‘y” degan purhikmat iboralar mavjud. Mehmonni hurmatini joyiga qo‘ymaydigan xonadonlarda fayzu baraka kamroq, bunday oilalarning

nufuzi kamroq bo'lgan, albatta. Hayotimizda ba'zan mehmondorchilikni xush ko'rmaydigan xasis oilalar ham uchrab turadi.

Shoir Maxtumquli yozganidek;

Nomard yurar mudom yo'lidan qochib,

Uyiga kelganiga zahar sochib.

Mard yigit mehmonga quchog'in ochib,

Nomardning mehmondan qochishini ko'ring.

Xalqimizda juda qadimdan davrlardan buyon mehmon kutadi va dasturxon yozadi. Mehmon kutishda ma'lum tartib va qoidalarga qat'iy rioya qilinadi. Mezbon uquvli, ozoda va pokiza tabiatli inson bo'lishi lozim.

Faqat xonadonda emas, balki to'y-tantanalarda va ma'rakalarda dasturxon soladigan, tayyorlagan turli xil taomlarni mehmonga bekam-u ko'st qilib bezatadigan, noz-u ne'matlarni barchaga barobar taqsimlanishini ta'min qiluvchi kishilar jamoa orasida tanlanib, qayvoni katbanu, dasturxonchi xodim deb ataladi. Dasturxon mehmonlar uchun to'y va bayram-tantanalari alohida tarzda yuksak saviya, mehr bilan bezatiladi. Chunki yaxshi dasturxon tuzab kutilgan mehmonlarning kayfiyatini ko'taradi, ziyofatni oqilona xizmat qiladi.

O'zbeklarda dastlab dasturxonga issiq ovqatlardan tashqari barcha yeguliklar, dastavval turli shirinliklar, meva-chevalar joy-joyiga qo'yiladi. Dasturxonda barcha narsalar me'yorida bo'lib, buning barcha yeguliklarning, narsalarning muhayyo bo'lishi, dasturxonga hamma narsalarning barchasidan keltirib qo'yilishi mehmonlarni taomlarning xohishiga qarab tegishli ishtaha saqlashlari, ovqatlanishlarini to'g'ri tashkil qilinishiga qulay sharoit yaratadi. Xalqimiz udumiga ko'ra, mehmonlarni dasturxon atrofiga joylashtirish, asosan ularning yoshiga va el-yurt oldidagi obro'yiga qarab turdan boshlanadi. Fotiha o'qilib, dastlab davradagi yoshi ulug' kishi dasturxondagi nonni ushatadi, mehmonlarga dastlab choy, keyin issiq va quyuq ovqatlar tortiladi. Ovqat ham dastlab turdagi yoshi ulug'larga, hurmatli mehmonlarga beriladi. Choy uchun har bir kishiga bittadan piyola, hozirda esa alohida choynak, piyola qo'yiladi. Aksariyat joylarda choyni mezbon quyib uzatadi yoki yoshroq kishilar quyadi.

An'anaga ko'ra, har bir o'zbek kelgan kishi choyga taklif etiladi. Xalqimizda har bir kishi safdoshini o'z taomiga sherik qilish udumi mavjud. "Ko'z haqi" odatiga ko'ra, safdosh o'z rizqini berishi zarur bo'lgan kishining ko'z oldida ovqat pishirilsa yoki non yopsa, shu kishi "ko'z haqi" egasi hisoblangan. Xonadonlarda bayram hayitlarda shirin taomlar pishirilsa yaqin qo'shnilarga (qo'shni haqqi), yaqin qarindosh, bemor va boshqalarga ulashiladi. O'zbek xonadonlarida qo'shnilar non, taomlar uzatishi uchun hovlilar o'rtasida maxsus darcha mavjud bo'lgan.

Marosimlarda dasturxon qilib kelsa, taomlar yaqin qo'shnilar va qarindoshlarga uzatiladi. Taomlar tayyorlashda turli sehrgarlik irimlari mavjud. Masalan, olim, davlat yoki nufuzli kishilardan qolgan taomlarni ularga o'xshasin, deb yoshlarga ulashilgan. Mehmon "Atoyi Xudo", "Xudo yuborgan odam" degan tasavvurlar bo'yicha undan kelgan taom tabarruk, tanovul qilish esa savob deb tushunishgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqimizda "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan" degan naql ham saqlanib qolgan.

Xalqimizda shaxsiy tomorqasidagi, bog'idagi meva-sabzavotlar pishganda ham yaqinlariga ulashish odati mavjud bo'lgan. Ushbu urf-odat va rasm-rusumlar xalqimizning ezgu milliy an'alariga aylanib ketgan.

Qashqadaryo vohasida sunnat to'ylarida uzoqdan kelgan mehmon va keksalar uchun maxsus joy - "mirzakur" solinib, mehmondorchilik qilinadi. Shuningdek, to'yda mehmonlar uchun yaqin qo'shni va qarindoshlar xonadonida "kunoq" ("kunik") beriladi. Biron hovliga mehmon kelsa qo'shnilar va yaqin qarindoshlar uylariga navbatma-navbat chaqirib, ziyofat qilishadi. Agar uzrli sabablarga ko'ra mehmon bora olmasa, unga ovqat tayyorlab keltiriladi ("dasturxon uzatish").

Islom dinida ham mehmondorchilik odoblariga katta e'tibor qaratiladi. Jumladan, mezbonga xos quyidagi odoblar bayon etilgan:

- ezgu niyat qilish;
- mehmonni ochiq yuz bilan kutib olish;
- mehmonni munosib joyga o'tirgizish;
- mehmon uchun o'zini qiynaydigan darajada, toqatidan ortiq urinmaslik;
- mehmonning haqqini ado qilish;
- mehmonga uy egasini hurmat qilishi;
- mehmonga qulaylik yaratib berish;
- mehmon ketayotganda uni ko'cha eshigigacha kuzatib qo'yish;
- mehmon yo'lga tushib ketmasdan oldin eshikni yopmaslik va unga kirib ketmaslik.

(Islom odoblari ensiklopediyasi. 1-kitob. T.: "Hilol nashr", 2019. B. 486-492).

Shuningdek, mehmonga tegishli odoblar ham mavjud:

- chaqirilgan joyga ijobat qilish;
- uzr so'rash va ziyorat odoblarini bilish;
- mezbonga tashakkur aytish;
- taomlanish odoblarini bilish;
- mezbonni mashaqqatga qo'yimaslik;
- chaqirilgan vaqtda borish.

Islomshunos R.Akbarov ham mehmondorchilikda mehmon va mezbon odoblariga atroflicha to'xtalgan. Mezbon odoblari quyidagilar; mehmon kutadigan

kishi pok va ozoda liboslarini kiyish, joylarini saranjom-sarishta bo'lishi, mehmonlarni ochiq yuz bilan kutib olish, mehmonlarga yaxshi joyni ko'rsatish, mehmonlar bilan hol-ahvol so'rashish, mehmonlarga shirinsuxanlik bilan muomala qilish, mehmonlarga taom olib kelishni paysalga solmay taomni tezroq olib kelish, mehmonlar bilan birga taom tanavvul qilish, mehmonga nojo'ya gap yoki qiliq qilib, ularni ko'nglini qoldirmaslik, mehmonlar oldida farzandlari yoki boshqa kishilarni urushmaslik, mehmonlar oldida mushuk kabi hayvonlarga qo'pollik bilan muomala qilmaslik ("Mehmon oldida mushugingni pisht dema"), mehmondan ayrim xatolar va kusurlar o'tsa ularni kechirish, ular oldida o'zini zeriktirmay ularga yaxshi suhbatlar berishi, mehmonga kelgani uchun tashakkur aytish, yaxshi niyatlar bildirish, yana mehmonga kelishini va ularga yaxshi yetib olishlarini niyat qilib, mehmonni kuzatib qo'yishi lozim bo'ladi.

O'z navbatida mehmon odoblari ham mavjudki, ularga rioya qilish talab etiladi: mehmon mezbenni hurmatini saqlashi, mehmondorchilikka ochiq chehra bilan borishi, mezbonga xushmuomala bo'lishi, ko'rsatilgan joyga o'tirishi, mehmon pok va ozoda bo'lishi, toza va ozoda kiyimlarini kiyishi, mezzondan hol-ahvol so'rashi, mehmon nojo'ya gap yoki qiliqlar qilib mezbenni ko'nglini qoldirmasligi, mezbon oldida farzandi va boshqa kishilari bilan urushmasligi, mezbondan ayrim xato va kusur o'tsa kechirishi, mehmon oldida o'zini kamtar tutishi, mezbonga yaxshi suhbatlar berishi, unga minnatdorlik bildirishi, ularning haqqiga duolar qilishi, mezbenni mehmondorchilikka taklif qilib, so'ngra xayrlashishi lozim. Demakki, mehmondorchilik xalqimiz ma'naviyatining mushtarak qismi bo'lib, xalqimiz o'rtasida ahillik, do'stlik va mehr-oqibat rishtalari tobora kuchayadi, xalqimizning o'zaro bahamjihat, tinch-osoyishta yashashiga yaqindan yordam beradi.

Xullas, O'zbekistonning har bir mintaqasida an'anaviy mehmondorchilikning uzviy va o'ziga xos (lokal) jihatlari mavjud. Lekin hozirgi jahon miqyosidagi globallashuv davridagi jarayonlar xalqimiz mehmondo'stligi udumlariga salbiy ta'sir etmoqda. Va ko'p asrlik qadriyatlarimizga ham putur yetkazmoqda. Shu boisdan yurtimizning har bir mintaqasi mentalitetini hisobga olgan holda azaliy mehmondorchilikning udum va an'alarini e'tiborli jihatlari ilmiy asosda o'rganish, amaliy tavsiyalar berish hamda xalqimizga, xususan yosh avlod dunyoqarashiga singdirish dolzarb bo'lib turibdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar.---T. "Fan", 1960. B.142-143.

- 2.O.Buriyev. "O'zbeklar an'anaviy mehmondorchiligining etnografik xususiyatlari" (Sohibqiron qadriyati. 2021 yil 3-son, B.131-141.)
- 3.Rui Gonsales de Klavixo. "Amir Temur elchisi nigohida".-T., "Zamin nashr", 2009. B.110-130).
- 4.Amir Temur davrida Ikkinchi Renessans davri. (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar. T., 2024. B.157-165).
- 5.O.Buriyev. Elchi Klavixo "Kundalik"larida Amir Temur davrida mehmondorchilik an'analari. Amir Temur davrida Ikkinchi Renessans davri. (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar. T., 2024. B.157-165).
- 6.Yuz bir hadis va uning izohi. - T.: "Mehnat". 1991. B.46.
- 7.Kaykovus. "Kobusnoma". - T.: Yangi asr avlodi. B.62-72.
8. Rasulov, R. "The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth." Академические исследования в современной науке 3, no. 48 (2024): 124-132.
9. Odilovich, Rasulov Rustambek. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): International journal of european research output (IJERO).
10. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. - 2024. - T. 37. - C. 32-41.
11. Odilovich R. R. Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri //International Journal of Scientific Research. - 2023. - T. 2. - C. 147-152.
12. Odilovich R. R. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505 [Электронный ресурс].
13. Rasulov R. O 'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri //«ACTA NUUZ». - 2025. - T. 1. - №. 1.4. 1. - C. 169-171.
14. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: C# WinForms asosida kalkulyator modeli //Academic Research in Modern Science, International scientific-online conference. - 2023.
15. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo 'lgan ta'siri //«ACTA NUUZ». - 2025. - T. 1. - №. 1.12. - C. 176-179.

16. Rasulov R. Raqamli transformatsiya davrida siyosiy mafkuralarning kelajakdagi shakllanish imkoniyatlari // «ACTA NUUZ». – 2026. – T. 1. – №. 1.2. – C. 163-165.

17. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process // International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 35-39.